


O.MURODQULOV.L.DEHQONOVA

FORS TILI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

O.MURODQULOV. L.DEHQONOVA.

Fors tili
زبان فارسی

Guliston-2010

Murodqulov.O.Dehqonova. L –«Fors tili» fanidan 5 220 100-yoʻnalishi boʻyicha bakalavrlar uchun zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tayyorlangan amaliy mashgʻulotlar toʻplami

Ushbu amaliy mashgʻulotlar toʻplami «Fors tili» fani mavzulari boʻyicha amaliy mashgʻulot, mustaqil ish topshiriqlarini oʻz ichiga olgan. Toplamda mavzuga oid nazorat topshiriqlari va yakuniy xulosalar oʻrin olgan.

Amaliy mashgʻulotlar toʻplami Guliston Davlat universiyeti OʻMkning yildagi 03-bayonnomasida nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

filologiya fanlari nomzodi

dotsentlar J.Abdullayev, B.Toʻychiboyev

So`z boshi

Bo`lajak mutaxassisning kasb malakasini oshirishda zarur bo`lgan asosiy fanlardan biri “Fors tili” fandir. Bu fan yosh mutaxassisning umumiy va kasbiy til madaniyatini oshirishga, tilga ongli munosabatda bo`lishga yordam beradi. Uni amalda savodli, tushunib, me'yoriy talablar asosida yetkazishga tayyorlaydi, xilma-xil matnlarni grammatik tahlil qilishga, baholashga o`rgatadi.

Shunday ekan, Fors tiliga daxldor har bir bo`lim, jumladan, “fonetika, orfografiya, orfoepiya, grafika”ni chuqur o`rgatishning ahamiyati katta. Xususan, bu fanning har bir qismi o`z oldiga qo`ygan maqsadi va vazifasiga ko`ra bir-birini to`ldirib, uzviy bir tizim sifatida amal qiladi.

“ Fonetika“ qismini o`qitishdan maqsad talabada fors tili tovushlarini to`g`ri talaffuz etish, arab-fors alifbosidagi harflarni to`g`ri yozish ko`nikmasini shakllantirishdagi orfografik printsiplarga alohida e'tiborni qaratish, fors tilining qadimdan to hozirgacha qanday yozuvdan foydalanganligini tushuntirish va shunga ko`ra hozirgi fors grafikasining o`ziga xos xususiyatlarini o`rgatishdir.

“Fors tili” fanining fonetika, orfografiya, morfologiya, sintaksis bo`limlari bo`yicha talabalarning bilim, ko`nikma va malakalariga qo`yiladigan talablarni quyidagicha ko`rsatish mumkin:

- 1) har bir bo`limga oid tushunchalarning mazmunini bilish va ulardan nutq amalida foydalana olish;
- 2) har bir mavzu doirasidagi eng so`nggi ilmiy munozaralardan xabardorlik, tavsiya etilgan manbalarni atroflicha o`rganish;
- 3) qo`yilgan muammo yuzasidan mustaqil fikrlay olish;
- 4) tovush va fonema, ular o`rtasidagi farqni ajratish;
- 5) matnlarni mustaqil o`qish va tarjima qilish

Fors tili fanining maqsad va vazifalari.

- 1.1. Fors tili kursining maqsad va vazifalari talabada ilmiy axborot bilan ishlash ko'nikmalarini va malakalarini shakllantirish, o'qish, yozish, arab imlosidagi qo'lyozma, toshbosma gazeta, jurnal va ilmiy asarlarni o'qishga, ulardan o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan axborotlarni olishga o'rgatish, joriy imloga tabdil va tahlil qila olishlariga erishish.
- 1.2. Talabaga fors tilida imlo qoidalari, so'z yasalihi, o'zak va u orqali so'zlarni topa bilishi, arab imlosidagi matnni bemaol o'qib, tabdil qila olishi, o'zbek tili tarkibidagi arab (fors) so'zlarini tahlil qila olishi kabi talablar qo'yiladi.
1- kursda: Fors tili fonetikasi, grafikasi, sodda yig'iq, sodda yoyiq gaplar izofiy birikmalar, ayrim fe'l shakllarini o'zlashtirish.2- kursda: Fors tili normativ grammatikasini o'zlashtirish. Og'zaki va yozma tarjimalar ko'nikmasini mustahkamlash. Klassik til xususiyatlari bilan tanishtirish.

II.Fanning mazmuni

Amaliy mashg'ulotlar mavzulari, mazmuni va vaqti.

№	Mavzu	Ko'riladigan masalalar mazmuni	Soati	
1	Fors tili haqida Fonetika.	Fors tilining taraqqiyot bosqichlari. Fors tili fonetikasi haqida. Unli tovushlarning tasnifi. Undosh tovushlarning akustik artikulyatsion xususiyatlari.	6	
2.	Fors tili alifboci	Fors tili tovush tarkibi va uning alifboda ifodalanishi, harflarning talaffuzi, ularning yozilishi va o'qilishi, unli va undosh harflar, urfu.Ayirilgan harflar.Qoshilgan harflar.	20	
3.	Fors tilida Morfologiya Ot so'z turkumi	So'z tarkibi. o'zak. Ot, uning grammatik kategoriyalari. Kelishik munosabatlari. Old	28	

		ko`makchilar, ort ko`makchi. Izofa. Egalik qo`shimchalari. Otlarning ko`plik shaklini yasash. Artikllarning ishlatilishi. Imlo qoidalriga amal qilish.		
4.	Sifat so`z turkumi	Asliy va nisbiy sifatlar. Sifat darajalari. Sifat darajalarining yasalishi va ishlatilishiga oid mashqlar.	10	
5.	Olmosh so`z turkumi.	Kishilk olmoshlari. So`roq olmoshlari. O`zlik olmoshi. Birlik olmoshlari. Olmoshlarning qo`llanishiga oid mashqlar	8	
6	Son so`z turkumi	Miqdor sonlar. Tartib sonlar. Numerativlar. Vaqtni ifodalanishi. Sonlarning ishlatilishiga oid mashqlar.	8	
7	Fe'l so`z turkumi.	Fe'lning tarkibiy turlari. Fe'l negizlari. Shaxs- son qo`shimchalari. Old qo`shimchalar. Inkor yuklamasi. Fe'lning grammatik kategoriyalari. Aniq maylga oid fe'l shakllari: o`tgan	34	

		zamon. Natijali o'tgan zamon. Uzoq o'tgan zamon. Hozirgi kelasi zamon. Aniq kelasi zamon. Buyruq mayli shakli. Shart- istak mayliga oid shakllar. Hozirgi kelasi zamon. O'tgan zamon. Modal fe'llar va so'zlar. Fe'l nisbatlari. Aniq nisbat va majhul nisbat. Fe'lning orttirma nisbati. Fe'llarning tuslanishiga oid mashqlar.		
8	Fors tilidagi "Yo"lar	«Yo-ye nisbat», «Yo-ye masdari», «Yo-ye liyoqat»larning qo'llanishiga oid mashqlar	8	
9.	Ravish, Ravishdosh	O'tgan zamon ravishdoshi, hozirgi zamon ravishdoshi. Ravish, ravish turlari. Ravish, ravishdoshlarning qo'llanishiga oid mashqlar.	8	
10	Ko'makchilar	Asosiy, izofali, murakkab ko'makchilar. Ort ko'makchi. Ko'makchilar va ularning ishlatilishiga oid mashqlar	18	
11	Bog'lovchilar	Teng, zidlovchi, juft, ergashtiruvchi bog'lovchilar. Bog'lovchilarning ishlatilishiga oid	6	

		mashqlar		
12	Yuklamalar.	So`roq yuklamalari. Tasdiq yuklamalari. Kuchaytirish, xis- xayajon yuklamalari.	6	
13	So`z birikmalari	Izofiy birikmalar. Predlogli birikmalar. Bitishuvli birikmalar. Murakkab so`z birikmalari. So`z birikmalari va ularning ishlatilishiga doir mashqlar	8	
14	Sodda gap	Bir sostavli va ikki sostavli sodda gaplar Ot kesimli sodda gaplar Gap bo`laklari. Bosh bo`laklar. Ikkinchi darajali bo`laklar. Kesim turlari. Ega va kesim moslashuvi.	10	
15	Qo`shma gap	Bog`langan qo`shma gaplar.	4	
16	Ergash gapli qo`shma gaplar.	Maqsad ergash gap. To`ldiruvchi ergash gap. Payt ergash gap. Aniqlovchi ergash gap. Shart ergash gap. Sabab ergash gap. To`siqsiz ergash gap. Teng bog`langan qo`shma gaplarning tuzilishiga doir mashqlar. Ergash gapli qo`shma gaplarning tuzilishiga doir. mashqlar.	38	

Mustaqil ish topshiriqlari:.

Mustaqil ish topshiriqlari har bir mavzuning yakunida keltirilgan

I -kursda 14 ta

II- kursda 10 ta

Darslik va o'quv qo'llanmalar ro'yxati
Asosiy adabiyotlar:

1. Xalidov B.Z. Uchebnik arabskogo yazo'ka. –T., O'qituvchi, 1977.
2. Talabov E. Arab tili darsligi. -T., O'qituvchi, 1993.
3. Baranov X.K. Arabsko-russkiy slovar. –M., 1985.
4. Abdusamatov M. Fors tili. –T., O'qituvchi, 1977.
5. Abdusamatov M. Siz forscha so'zlashasizmi? –T., O'qituvchi, 1971

Qo'shimcha adabiyotlar:

- Ibrohimov N., Yusupov T. Arab tili grammatikasi. 1, 2-jildlar. -T., 1998, 2003.
6. Ibrohimov B. O'zbekcha-arabcha so'zlashgich. –T., 1994
 7. Talabov E. Arabcha-o'zbekcha-ruscha so'zlashgich. –T., 1994.
 8. Qurbonbekov A. Fors tili. 10 kitob. –T., 2000.
 9. Gulshan-e forsi. ToshDU, 1975.

3.1 Talabalar mustaqil ishlari:

I-kurs uchun

- 3.1.1 Mo'ttasil va mo'nfasil harflar.
- 3.1.2 Qisqa va cho'ziq unlilarni aniqlash
- 3.1.3 Arab satr usti belgilarini
- 3.1.4 Shamsiy -qamariy harflar
- 3.1.5 So'roq gaplar.
- 3.1.6 Ot kesimli sodda yig'iq gap
- 3.1.7 Izofa va izofa zanjiri
- 3.1.8 Otlarda son kategoriyasi
- 3.1.9 Egalik affikslari zamoyer-e mo'ttasele ضمائر متصله
- 3.1.10 Miqdor va tartib sonlar
- 3.1.11 Fe'l فعل
- 3.1.12. Vaqtning ifodalanishi
- 3.1.13.Egalikning ifodalanishi
- 3.1.14.Payt holi

Asosiy adabiyotlar:

- 1.Abdusamatov M. Fors tili. –T., O'qituvchi, 1977. 28-35 betlar.
- 2.Qurbonbekov A. Fors tili. 10 kitob. –T., 2000. 14-43 betlar
3. Xalilov. Fors tili. Toshkent. «O'qituvchi» nashriyoti. 1992 yil. 16-33 betlar

Qo'shimcha adabiyotlar:

- 1.Ibrohimov N., Yusupov T. Arab tili grammatikasi. 1, 2-jildlar. -T., 1998, 2003.11-38 betlar
- 2.Ibrohimov B. O'zbekcha-arabcha so'zlashgich. –T., 1994 8-25 betlar

3. Talabov E. Arabcha-o'zbekcha-ruscha so'zlashgich. –T., 1994.
 4. Abdusamatov M. Siz forscha so'zlashasizmi? –T., O'qituvchi, 1971
- II-kurs uchun

- 3.1.1. Buyruq fe'li
- 3.1.2. Makollar
- 3.1.3. Siniq ko'plik
- 3.1.4. Izofali murakkab predloglar
- 3.1.5. Hozirgi zamon sifatdash
- 3.1.6. Moze-ye naqli
- 3.1.7. O'tgan zamon natijali fe'li
- 3.1.8. Uzoq o'tgan zamon fe'li
- 3.1.9. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek matni
- 3.1.10. Matn ustida ishlash

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdusamatov M. Fors tili. –T., O'qituvchi, 1977.
2. Abdusamatov M. Siz forscha so'zlashasizmi? –T., O'qituvchi, 1971
3. Xalilov. Fors tili. Toshkent. «O'qituvchi» nashriyoti. 1992 yil.
4. Qurbonbekov A. Fors tili. 10 kitob. –T., 2000. 14-43

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Ibrohimov N., Yusupov T. Arab tili grammatikasi. 1, 2-jildlar. –T., 1998, 2003.
2. Ibrohimov B. O'zbekcha-arabcha so'zlashgich. –T., 1994
3. Talabov E. Arabcha-o'zbekcha-ruscha so'zlashgich. –T., 1994.
4. Qurbonbekov A. Fors tili. 10 kitob. –T., 2000.
5. Gulshan-e forsi. ToshDU, 1975.

3.2. Mustaqil ish topshiriqlari:

I-kurs uchun

- 3.2.1. Fors-arab alifbosini yozib ko'rsating, (alifbo tartibida).
- 3.2.2. Shaklan bir xil, nuqtalarning o'rni va soniga ko'ra farqlanuvchi harflarni ajratib yozib ko'rsating.
- 3.2.3. Mo'nfasil harflarni (bir tomondan qo'shilib yoziluvchi) harflarni yozish, ular ishtirokida so'zlarga misollar yozing.
- 3.2.4. Mo'ttasil (har ikki tomondan qo'shiluvchi) harflarni har birini bir necha qatordan yozing
- 3.2.5. . Arab satr usti belgilarini aniqlang.
- 3.2.6. Tashdid va hamza belgilariga tavsif bering.
- 3.2.7. Tanvin va vasla belgini misollar asosida ta'riflang.
- 3.2.8. Arab satr usti belgilarini imlo o'zgarishlarini (belgilang) aniqlang.
- 3.2.9. .Qaratqich va qaralmishni ifodalovchi izofaga oid 10 ta misol toping.
- 3.2.10. Aniqlovchi va aniqlanmish aks etgan izofa ishtirokida 5 ta gap yozing..
- 3.2.11. Izofa imlosini tushuntiring.

3.2.12..Cho'ziq unlilar bilan tugovchi so'zlarda izofa belgisiganday bo'lishini izohlang.

3.2.13.Arab izofasi bilan fors izofasi farqini tushuntiring.

3.2.14.Izofa zanjiridagi so'z tartibini yozing.

3.2.15.Izofa zanjiriga oid 10 ta misol yozing.

Asosiy adabiyotlar:

1.Abdusamatov M. Fors tili. –T., O'qituvchi, 1977. 28-35 betlar.

2. Qurbonbekov A. Fors tili. 10 kitob. –T., 2000. 14-43 betlar

3. Xalilov. Fors tili. Toshkent. «O'qituvchi» nashriyoti. 1992 yil. 16-33 betlar

Qo'shimcha adabiyotlar:

1.Ibrohimov N., Yusupov T. Arab tili grammatikasi. 1, 2-jildlar. -T., 1998, 2003.11-38 betlar

2.Ibrohimov B. O'zbekcha-arabcha so'zlashgich. –T., 1994 8-25 betlar

3.Talabov E. Arabcha-o'zbekcha-ruscha so'zlashgich. –T., 1994.

4.Abdusamatov M. Siz forscha so'zlashasizmi? –T., O'qituvchi, 1971

II-kurs uchun

.

3.2.1.Fors tilida sodda fe'llardan buyruq fe'lining yasalishi.

3.2.2.امدن ; دیدن ; رفتن ; دادن fe'llaridan buyruq fe'li yasang va ular ishtirokida 4ta jumla yozing..

3.2.3. Fors tilida prefiksli fe'llardan buyruq fe'lining yasalishi.

3.2.4.برداشتن ; فراگرفتن ; برگشتن fe'llaridan buyruq fe'li yasang va ular ishtirokida 3ta jumla yozing.

3.2.5. Fors tilida murakkab fe'llardan buyruq fe'lining yasalishi.

3.2.6.قسم خردن ; کار کردن ; استراحت کردن fe'llaridan buyruq fe'li yasang va ular ishtirokida 3ta jumla yozing.

3.2.7.Quyidagi forscha maqollarning o'zbekcha variantini ayting;

a)کوه بکوه نمیرسد آدم بادم میرسد kuh be kuh namirasad odam be odam mirasad.

b)سوخن راست تلخ است suxan- e rost talxast.

v)تشنه در خواب آب میبندد tashne dar xob ob mibinad.

g)بار کج به منزل نمرسد bore kaj be manzel namirasad.

3.2.8. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.

رو رو آهسته A) ohesta rav rav.

صبر است ولکن بر شیرین است V) sabrast valikan bar-e .shirinast

یک دست ندارد D) Yek dastnadorad.

دیوار دارد موش دارد E) Divordorad mush.....dorad.

3.2.9.Quyidagi o'zbekcha maqolarning forscha variantini ayting:

A)Holva degan bilan og'iz chuchimaydi.

B)Egri yuk manzilga etib bormaydi

V) Bir gul bilan bahor bo'lmaydi

3.2.10.Berilgan otlardan siniq ko'plik yasang:

مرکز Markaz, کتاب ketob, ملت mellat, دولت duo'lat,
وسیله Vasile. رسم rasm, اثر asar, رجل rajul.

3.2.11.-e bilan tugagan so'zlardan ات -ot affiksi orqali ko'plik yasang:

میوه mive-meva کارخانه korxonne-zavod

روزنامه ruznome-ro'znoma

3.2. 12. درباره dar bore-ye, بواسیطة be vosite-ye درباب dar bo-be izofali murakkab

predloglar ishtirokida jumlar tuzing

Asosiy adabiyotlar

1. Abdusamatov M. Fors tili. –T., O'qituvchi, 1977.

2. Qurbonbekov A. Fors tili. 10 kitob. –T., 2000.

3. Xalilov. Fors tili. Toshkent. «O'qituvchi» nashriyoti. 1992 yil.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Ibrohimov N., Yusupov T. Arab tili grammatikasi. 1, 2-jildlar. -T., 1998, 2003.

2. Ibrohimov B. O'zbekcha-arabcha so'zlashgich. –T., 1994

3. Talabov E. Arabcha-o'zbekcha-ruscha so'zlashgich. –T., 1994.

4. Abdusamatov M. Siz forsha so'zlashasizmi? –T., O'qituvchi, 1971

1 - Amaliy mashg'ulot

Fors tili fanini o'qitishning maqsad va vazifalari.

Ajratilgan vaqt: 2 soat

Asosiy savollar:

1. Fors tili va uning eroniy tillari orasida tutgan o'rni, fors tilining taraqqiyot davrlari haqida ma'lumot berish.
2. Fors-arab yozuvining ayrim xususiyatlari, fors tili o'qitishning muhim ahamiyati.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Ho'rufe mo'nfasele va mo'ttasele, madda, diakritik belgi.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Fors tilini hind-evropa tillariga mansub eroniy tillar guruhiga kirishi va ba'zi bir fonetik va grammatik xususiyatlariga ko'ra g'arbiy va sharqiy gurppa eroniy tillariga bo'linishini so'zlab beradi.
- 1.2. Fors tilining tarixiy taraqqiyot yo'lini uch asosiy davrini ayta oladi.
- 1.3. Til o'rganish muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslaydi.

1-savolning bayoni:

Hozirgi fors tili Eronning davlat va adabiy tilidir. Fors adabiy tilining tayanch dialekti Tehron dialektidir.

Fors tili o'zaro qarindosh bo'lgan boshqa tillar bilan birgalikda hind-evropa tillariga mansub eroniy tillar gruppasiga kiradi.

Eroniy tillar ba'zi bir fonetik va grammatik xususiyatlariga ko'ra g'arbiy va sharqiy gurppa eroniy tillariga bo'linadilar:

1. G'arbiy gurppa eroniy tillariga fors, tojik, baluchi, kurd va Kaspiy bo'yi tillari (gilon, mozandaron, semnon, tolsh, tot) va boshqa tillar kiradi.
2. Sharqiy gurppa eroniy tillariga afg'on (pushtu), osetin, yag'nob va pomir tillari (shug'non, voxon, sanglichi, yazg'ulom, ishkamish, zeboki, munjon) va boshqa tillar kiradi.

Eroniy tillar o'zlarining tarixiy taraqqiyoti namunasida grammatik qurilish va leksik sostav jihatidan bir-birlaridan ancha farq qiladilar.

Hozirgi fors tili o'z yozuviga ega bo'lgan eng qadimiy tillardan biridir.

Fors tilining tarixiy taraqqiyot yo'lini uch asosiy davrga bo'lish mumkin:

1. Qadimgi fors tili (eramizdan ilgari VI-III asrlar).
2. O'rta davr fors tili (eramizning III –VII asrlari).
3. Yangi yoki hozirgi fors tili (IX asrdan shu kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi).

Har bir davr tilining o'ziga xos grammatik xususiyatlari lug'at o'zgarishlari va ma'lum yozuv sistemasi bo'lgan.

Qadimgi va o'rta davr fors tili o'lik til hisoblanib uning grammatik qurilishi va lug'at sostavi haqida bizgacha etib kelgan yozma yodgorliklar orqaligina tushuncha hosil qilishimiz mumkin.

Ma'lumki VII asrda arablar Eron, O'rta Osiyo va ularga qo'shni bo'lgan bir necha mamlakatlarni zabt etadilar. Arablar islom dini bilan bir qatorda o'z madaniyati, tili va yozuvini

keng halq ommasiga zo'rlik bilan sindirishga kirishdilar. Shu tariqa bu o'lkalarda arab alifbosi hukmron yozuv bo'lib qoldi.

VII asrning oxiriga kelib erli xalqlar arab tilida diniy, falsafiy hamda huquq va adabiyotga, meditsinaga oid kitoblar yoza boshlaydilar. Ilmiy va adabiy kitoblarni boshqa tillardan arab tiliga tarjima qilish keng avj oladi. O'qishlar arab tilida olib boriladi. Yozuvda arab alifbosi mustahkam o'rnatilib oladi.

Arablar O'rta Osiyo va Eron xalqlariga o'z til va madaniyatlarini yoyishga va bu xalqlar tilini aloqadan siqib chiqarishga qanchalik jon-jahdlari bilan harakat qilmasinlar, O'rta Osiyo va Eron xalqlari doimo o'z davlat va til mustaqilligi uchun kurashib keldilar va o'z til asoslarini saqlab qoldilar.

IX asrda Eron va O'rta Osiyo xalqlari o'z davlat mustaqilligi va o'z huquqlarini tiklash uchun olib borgan kurashlarida g'olib chiqadilar va arab xalifaligi hukmronligidan ozod bo'lib, o'zlarining markazlashgan Somoniylar davlatini vujudga keltirdilar.

Somoniylar davriy yoki forsiy nomi bilan atalgan mahalliy tilni o'zlarining davlat va adabiy tili deb e'lon qildilar. Davriy tili qadimgi va o'rta davr fors tilining tarixiy taraqqiyoti davomi sifatida shakllandi va arab so'zlari hisobiga o'z leksik sostavini boyitdi. Shunday qilib fors tili tarixida III davr- yangi fors tili davri boshlandi. Dariy tez sur'at bilan taraqqiy etdi, tez vaqt ichida fan va adabiyot uchun asosiy til bo'lib qoldi.

IX-XV asrda O'rta Osiyo xalqlari tarixida ilm, madaniyat, adabiyot va she'riyat yuksak darajaga ko'tarildi.

Bu davrda bir tomondan ijtimoiy fanlar tarix, falsafa va adabiyot keng rivojlangan bo'lsa, ikkinchi tomonidan, tabiiy fanlar-matematika, astronomiya, meditsina fanlari taraqqiy etib, bu sohada olib borilgan ilmiy tadqiqodlar asosida o'lmas asarlar yaratildi. Bu asrlarni yaratgan Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy va boshqa olimlarning nomlari dunyoga mashhurdir.

Somoniylar davlati barpo bo'lishidan boshlangan besh asrlik davr eron va tojik xalqlari adabiyotining xususan she'riyatining kamolat cho'qqisi sari rivojlangan davri bo'ldi.

Bu davrda o'zining o'lmas asarlari bilan jahon kitobxonlarini maftun etgan Abu Abdullo Rudakiyning lirik she'rlari, Abulqosim Firdavsiyning mashhur «Shohnoma»si, Umar Hayyomning ruboiylari, Sa'diy Sheroziyning «Guliston» va «Bo'ston» asarlari, Nizomiy Ganjaviy va Amir Xisrav Dehlaviyning «Xamsa»lari, Hofizning g'azallari, Abdurahmon Jomiyning «Haft afrang» va boshqa bir qancha shoir va olimlarning asarlari yaratildi.

Muhokama uchun savollar:

- 1.1. G'arbiy gruppada eroniy tillariga qaysi tillar kiradi?
- 1.2. Sharqiy gruppada eroniy tillariga qaysi tillar kiradi?
- 1.3. Fors tilini o'rganish nima uchun filologiya fakulteti talabalari uchun muhim ahamiyatga ega. Izohlang.
- 1.4. Fors tilining tayanch dialekti qaysi?
- 1.5. Fors tilining taraqqiyot yo'li davrlari qaysilar?
- 1.6. Yangi fors tili davrining o'ziga xos jihatlari haqida fikringiz?
- 1.7. Somoniylar davlati davrida adabiyot va san'at, ilm va ma'rifatdagi o'zgarishlar haqida so'zlang?

2-savol bo'yicha dars maqsadi:

Fors –arab yozuvining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida talabalarda tushunchalar hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 2.1. Fors yozuvida xat o'ngdan chapga qarab yozilishi va o'qilishini ayta oladi.
- 2.2. Fors tilida bo'g'in ko'chirish yo'qligini, bosh va kichik harflar bo'lmay so'zlar o'rniga ko'ra o'z shakliga ega bo'lishini biladi.
- 2.3. Qisqa unlilar yozuvda tushib qolishini, ular diakritik belgilar bilan berilishini sharhlaydi.

2- savolning bayoni:

Fors-arab yozuvining o'ziga xos xususiyatlari:

1. O'zbek yozuvida xat chapdan o'ngga qarab yozilsa, fors yozuvida esa xat o'ngdan chapga qarab yoziladi va shu tartibda o'qiladi.
2. Fors-arab albosida atoqli otlar va boshlanish uchun maxsus harflar yo'q. Harfning so'zdagi o'rniga ko'ra so'z boshi, so'z o'rta, so'z oxiri va alohida shakllari bor.
3. Fors yozuv sistemasida shu vaqtga qadar tinish belgilarini ishlatish qonunlashtirilmagan. XX asrdan boshlab fors tiliga ba'zi bir tinish belgilar kirib kela boshladi. Nuqta, vergul, (teskari holda) qo'shtirnoq, so'roq alomati (teskari holda) ko'p nuqta, qavs kabi tinish belgilari ishlatilmokda .
4. Fors yozuvida qisqa unlilar yozilmay diakritik belgilarda ifodalanadi, ular yozuvda odatda tushib qoladi, faqat madda belgisi qo'yiladi.
5. O'zbek yozuvida so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib, bir satrdan ikkinchi satrga ko'chirish mumkin. Ammo fors tilida bo'g'in ko'chirish mumkin emas. Agar satr oxiridagi so'zni shu satrga sig'dirish mumkin bo'lmasa uni butunlay ikkinchi satrga yozish kerak bo'ladi. Satr ochiq qolmasligi uchun so'zning oxirgi harflarini cho'zibroq yoziladi.

Muhokama uchun savollar:

- 2.1.Fors-arab yozuvining o'ziga xos xususiyatlarini sanab o'ting.
- 2.2.Qisqa unlilar qanday ifodalanadi, diakritik belgi nima?

2 -Amaliy mashg'ulot:

Arab-fors alifbosi.

Ajratilgan vaqt- 6 soat

Dars maqsadi: Talabalarga arab-fors alifbosini o'rgatish, yozish malakasini hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Arab-fors alifbosi haqida tushunchaga ega bo'ladi.
- 1.2. Alifboni yoza oladi va yoddan aytib beradi.

Ishni bajarish tartibi:

1. Arab-fors alifbosini yozishini o'rgatish.
2. Shaklan bir xil, nuqtalar soni va o'rniga ko'ra farqlanuvchi harflarni yozish.
3. Satr chizig'idan pastga tushmaydigan harflar.
4. Satr chig'idan pastga tushadigan harflar.

Harfning nomi	Harf ifoda etgan tovushlar	Harflarning yozilishi			
		So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
Alif	o, a, , e, o'	ا	ا	ا	ا
Be	b	ب	ب	ب	ب
Pe	p	پ	پ	پ	پ
Te	t	ت	ت	ت	ت
Se	s	ث	ث	ث	ث
Jim	j	ج	ج	ج	ج
Chim	ch	چ	چ	چ	چ
He (hoye-ho'tti)	h	ح	ح	ح	ح

Xe	x	خ	خ	خ	خ
Dol	d	د	د	د	د
Zol	z	ذ	ذ	ذ	ذ
Re	r	ر	ر	ر	ر
Ze	z	ز	ز	ز	ز
Je	j	ژ	ژ	ژ	ژ
Sin	s	س	سد	سد	س
Shin	sh	ش	شد	شد	ش
Sod	s	ص	صد	صد	ص
Zod	z	ض	ضد	ضد	ض
To	t	ط	ط	ط	ط
Zo	z	ظ	ظ	ظ	ظ
ayn	() ‘	ع	ع	ع	ع
g’ayn	g’	غ	غ	غ	غ
Fe	f	ف	ف	ف	ف
qof	q	ق	ق	ق	ق
Kof	k	ك	ك	ك	ك
Gof	g	گ	گ	گ	گ
Lom	l	ل	ل	ل	ل
Mim	m	م	مم	م	م

Nun	n	ن	ذ	ذ	ن
Vov	v, u, o'ʻu	و	و	و	و
he (hoye-havvaz)	h	ه	ه	ه	ه

Kerakli adabiyotlar:

1. M.Abdusamatov. Fors tili. Toshkent. «O'qituvchi» nashriyoti. 28-35 betlar.
2. Xalilov. Fors tili. Toshkent. «O'qituvchi» nashriyoti. 1992 yil. 16-33 betlar.
3. R.Jumaniyozov. Eski o'zbek yozuvi. Toshkent. «O'qituvchi» 1989 y. 14-20 betlar.

3-Amaliy mashg'ulot:

Mo'ttasil va mo'nfasil harflar.

Dars maqsadi: Mo'ttasil (qo'shilgan) va mo'nfasil (ayrilgan) harflar haqida ma'lumot berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. O'zidan oldingi harfga qo'shib, keyingisiga qo'shilmaydigan harflarni ajrata oladi.
2. Har ikki tomondan qo'shib yoziladigan harflar yozuvda 4 xil shaklda bo'lishini biladi.
3. Mo'ttasil harflar 25 ta va mo'nfasil harflar 7 ta ekanligini biladi va bir-biridan farqlaydi.

Kerakli jihozlar: alifbo, darslik, doska, bo'r.

Ishni bajarish tartibi:

1. Harflarni ikki guruhga : mo'ttasil va mo'nfasil harflar guruhiga ajratish.
2. Mo'nfasil (ayrilgan) harflarni 2 xil shaklini yozib mashq qilish.
3. Mo'ttasil (qo'shilgan) harflarni 4 xil shaklini yozish, mashq qilish.
 1. Mo'ttasil harflar. O'zidan oldingi va keyingi harflarga qo'shib yoziladigan harflar 4 xil shaklda yoziladi.
 2. Mo'nfasil harflar. Mazkur harflar o'zidan oldingi harfga qo'shiladi, o'zidan keyingi harfga qo'shilmaydi va yozuvda 2 xil shaklga ega bo'ladi.
4. So'zlar yozishni mashq qilish.

Kerakli adabiyotlar:

1. Abdusamatov M. Fors tili. «O'qituvchi». Toshkent. 30-35 betlar.
2. Xalilov. Fors tili. Toshkent. «O'qituvchi» nashriyoti. 1992 yil.
3. R.Jumaniyozov. Eski o'zbek yozuvi. Toshkent. «O'qituvchi» 1989 y.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1-topshiriq. Fors tilining taraqqiyot davrini tahlil qilish.

- 1.1. Taraqqiyot davrlariga izoh bering.
- 1.2. Fors-arab yozuvining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang, yozib ko'rsating.

2-topshiriq. Fors-arab alifbosiga tavsif berish.

- 2.1. Fors-arab alifbosini yozib ko'rsating, (alifbo tartibida).
- 2.2. Shaklan bir xil, nuqtalarning o'rni va soniga ko'ra farqlanuvchi harflarni ajratib yozib ko'rsating.
- 2.3. Satr chizig'ida yoziluvchi harflarni alohida, satrdan pastda yoziladigan harflarni alohida yozib ko'rsating.

3-topshiriq. Mo'ttasil va mo'nfasil harflarga ta'rif berish.

- 3.1. Mo'nfasil harflarni (bir tomondan qo'shilib yoziluvchi) harflarni yozish, ular ishtirokida misollar yozing.
- 3.2. Mo'ttasil (har ikki tomondan qo'shiluvchi) harflarni har birini bir necha qatordan yozib chiqing. Ular ishtirokidagi so'zlarga misollar keltiring.

Ushbu topshiriqlar savollariga quyidagi adabiyotlardan javob topasiz:

1. Abdusamatov M. Fors tili. 9-12 bet. 28-35 bet.
2. Jumaniyozov R. Eski o'zbek yozuvi. «O'qituvchi». Toshkent. 1989 y. 101-104 bet.
3. Xalilov . Fors tili. «O'qituvchi». Toshkent. 1992 yil. 1-33 betlar.

4-Amaliy mashg'ulot:

Fors tilida qisqa va cho'ziq unlilarning ifodalanishi.

1. Qisqa unlilarni yozuvda ifodalanishi.
2. Cho'ziq unlilarning yozuvda ifodalanishi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Zabar, zir, pish, so'kun, modda.

Dars maqsadi: Talabalarda qisqa va cho'ziq unlilarning yozuvda ifodalanishi bo'yicha tushuncha hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Qisqa unlilar yozuvda ifoda etilmay, yozuvda tushirib qoldirishi, diakritik belgilarda ifodalanishini biladi.
2. Cho'ziq unlilarni yozuvda ا -alif, و -vov, ی -yo harflari bilan ifoda etilishini va so'z boshida kelganda bir alif ا orttirilib yozilishini, imlosini biladi.

Kerakli jihozlar:

Doska, bo'r, tablitsa (imloga oid).

Ishni bajarish tartibi:

1. Qisqa unlilarning yozuvda zabar, zir, pish orqali berilishi tushuntiriladi va yozdiriladi.

1-savol bayoni:

Fors tilida qisqa unlilar harflarining usti va ostiga qo'yiladigan harakat deb ataluvchi diakritik belgilar orqali ifoda etiladi. Harakat qaysi harfning ustiga yoki ostiga qo'yilsa, avval harakat qo'yilgan undosh o'qilib, so'ngra harakat talaffuz etiladi.

1. Harf ustiga chiziqcha qo'yish orqali a unli tovushi ifoda etiladi.

Yozuvda - belgisi bilan ifodalanib, fors grammatikasida ز بر -zabar (ustida, tepasida degan ma'noda) deyiladi. Masalan:

من -man-men;

ملح -malax- chigirtka, شب -shab-kechqurun.

2. Harf ostiga chiziqcha qo'yish orqali e tovushi ifoda etiladi.

Yozuvda □ belgisi bilan ifodalanib, fors grammatikasi

زیر -zir (ostida, tagida degan ma'noda) deb ataladi. Masalan: دل -del-yurak, شش -shesh- olti, زمستان -zemeston- qish.

3. Harf ustiga vergul shaklidagi belgi qo'yilib, o' unli tovushi ifoda etiladi.

Yozuvda belgisi bilan ifoda qilinib, fors grammatikasida پیش -pish (old, oldida) deyiladi. Masalan:

هـر -ho'nar-san'at, مرغ -mo'rg', tovuq,

Agar qisqa unlilardan biri so'z boshida kelsa, so'z boshida bir alif orttirilib, zarur bo'lgan diakritik belgi shu alifning usti yoki ostiga qo'yiladi. Bunda alif butunlay talaffuz etilmay, faqat vositachi rolini bajaradi.

اگر -agar, اثر -asar-iz, اسم -esm-ism,

افق - o'fq-ufq, اطاق -o'toq-uy, xona.

Ayn - bilan boshlanuvchi arab so'zlarida diakritik belgi ayn harfining osti yoki ustiga qo'yiladi. Ayn talaffuz etilmaydi.

عقل -aql-aql, علم -elm-ilm, عمر -o'mr-umr,
عـزـر -o'zr-uzr.

2-savol bayoni:

Cho'ziq unlilarning yozuvda ifoda etilishi.

Fors tilida cho'ziq unlilar (o, u, i) ا - alif, و - vov, ی -yo harflari bilan ifoda etiladi. Masalan:

cedo-ovoz, رو -ru- yuz, ماهي -mohi-baliq.

Agar cho'ziq unlilar so'z boshida kelsa, yozuvda cho'ziq unli oldidan bir alif orttirilib yoziladi. Masalan:

آب -ob-suv, آتش otash-olov, او -u-u,
اوت -ut-avgust, ايران -iron-Eron.

Agar و - vov yoki ی - yo so'z boshida alifsiz bo'lsa, v va y undosh tovushlarini ifodalaydi.

وطن -vatan-vatan, يار - yor-yor.
ورزش - varzesh-sport, يخ -yax-yax.

Arab tilidan kirgan so'zlarning boshida ayn va alif harflari birga kelsa, ayn talaffuz etilmay, alif cho'ziq unli o tarzida talaffuz qilinadi. Masalan:

عادل -odel -odil, عالي - oli - oliy,
عاقـل - oqel -aqlli, عاشق -osheq- oshiq.

2. Cho'ziq unlilarning yozuvda ifodalanishini misollar orqali yozdirish, Mashq qilish.

Kerakli adabiyotlar:

- 1.Abdusamadov M. Fors tili.36-40 bet.
- 2.Eski o'zbek yozuvi. Jumaniyozov R. Toshkent. 114-121 betlar.
- 3.Xalilov L .Fors tili .Toshkent. « O'qituvchi».20-24- betlar.

5 –Amaliy mashg'ulot.

Arab satr usti belgilari.

Asosiy savollar:

Arab satr usti belgilari va ularning imlosi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Tashdid, hamza, tanvin, vasla.

Dars maqsadi:

Arab satr usti belgilari haqida ma'lumot berish va ular imlosi bilan tanishtirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Arab satr usti belgilari qaysilar ekanligini biladi.

2. Tashdid, tanvin, hamza va vasla belgilarining imlo qoidalarini farqlay oladi.

Fors tiliga arab harflari bilan bir qatorda, arab satr usti belgilari ham kirib kelgan. Bu belgilar quyidagilardir:

1. تشديد - tashdid (kuchaytirish degan ma'noda) yozuvda ʻ belgisi bilan ifodalanib, harfni takrorlab, o'qishga ishora qiladi. Bunda avval tashdid ostidagi undoshni takrorlab, so'ng tashdid ustidagi harakat o'qiladi. Masalan:

اول - avval- avval, birinchi.
نقاش -naqqosh-naqqosh, rassom.
تبسم -tabasso'm- tabassum.

2. همزه - hamza yozuvida ء - belgisi bilan ifoda etilib, alif, vov, va yo harflari ustiga qo'yiladi, harflar talaffuz qilinmaydi faqat vositachi vazifasini bajaradi.

تاكيد - ta'kid- ta'kidlash
حيات -hey'at- hay'at, grupp
مؤمن -mo'' men-imonli, mo'min

3. تنوين -tanvin faqat arab tilidan kirgan so'zlardagina uchraydi. Yozuvda ʻ belgisi bilan ifodalanib, so'z oxirida vositachi alif ustiga qo'yiladi, va - an tovush birikmasini bildiradi. Masalan:

فورا -fo'uran-tezda, tezlik bilan.
قصد ا - qasdan-qasddan, ataylab.
مسالاً -masalan.
مضمونا -mazmunan.

4. وصل - vasla (qo'shish ma'nosida) belgisi bilan ifoda etilib, arab tilidagi aniqlik artikli al- ال birikmasining birinchi harfi alif ustiga qo'yiladi. Fors tilida vasla murakkab so'zga aylangan ba'zi arab izofiy birikmalarida yoki aniq otlarda uchraydi. Masalan:

المغرب -al-mag'reb - g'arb.
دارلفنون - dor-o'l-fo'nun – universitet.

Muhokama uchun savollar:

1. Qanday arab satr usti belgilarini bilasiz?
2. Hamza belgisining imlo o'zgarishlarini aytib o'ting.
3. O'zbek tiliga ham arab so'zlari orqali ravish vazifasida kelgan so'zlar kirib kelganmi? Misollar keltiring.

Ishni bajarish tartibi:

1. Tashdidli so'zlarga 6 ta misol keltiring.
2. Tanvinli so'zlarning gapdagi vazifasini aniqlang.
3. Fors tilida hamza belgisining xususiyatlarini izohlang.
4. Vasla va tashdid belgisiga tavsif bering.
5. Arab satr usti belgilari ishtirokidagi so'zlarga 10 ta misol keltiring.

Kerakli adabiyotlar:

1. Abdusamadov M. Fors tili. 45-50 betlar.
2. Jumaniyozov R. Eski o'zbek yozuvi. 121-128 betlar.
3. Xalilov. Fors tili. 20-23 betlar.

6-Amaliy mashg'ulot.

Shamsiy va qamariy harflar.

Dars maqsadi: Arab izofasi, shamsiy, qamariy harflar haqida tushuncha hosil qilish, o'qilishidagi o'zgarishlar bilan tanishtirish.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: izofa, shamsiy, qamariy, al artikli. (izofa- qo'shish, bog'lash, shamsiy harflar-quyosh harflari, qamariy –oy, al artikli-aniqlik ko'rsatkichi).

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Arab izofasi nima ekanligini ayta oladi.
2. Shamsiy harflar -quyosh harflariga qaysi harflar kirishini biladi.
3. Qamariy harflar –oy harflariga kiruvchi harflarni biladi.
4. Shamsiy va qamariy harflar ishtirokidagi arab izofasiga misol keltiradi, o'qitilishidagi o'zgarishlarga tavsif bera oladi.

Arab izofasi, shamsiy va qamariy harflar haqida.

Arab alifbosidagi harflar 2 guruhga –shamsiy va qamariy harflar guruhiga bo'linadi. -ho'rufe qamariy (oy harflari) va ho'rufe shamsiy (quyosh harflari). Shamsiy harflar quydagilardir.

ن ل ظ ط ض ص ش س ز ر ذ د ث ت

Qamariy harflarga kiruvchi harflar esa

و م ه ي ك غ ع ف ق ج خ ح ب ا

dir.

Izofa so'zining lug'aviy ma'nosi qo'shish va bog'lash demakdir. Aniqlanmish va aniqllovchi, qaralmish va qaratqich munosabatlarini ifodalovchi tushuncha izofa deb ataladi. Arab izofasi ko'rsatgichi ال al (yoki ul) so'zlarni bir-biriga bog'lashga xizmat qiladi.

Agar al- ال aniqlik ال artiklidan keyin kelgan so'zning birinchi harfi shamsiy harf bilan boshlansa, ال al artiklidagi ل lom talaffuz etilmay, keyingi harf tashdid bilan o'qiladi. Masalan:

السلام - as-salom-assalom.

لغة الترك - lo'g'at-o't turk-turkcha lug'at.

Al artiklidan keyingi harf qamariy harf bo'lsa, al (yoki o'l) to'liq talaffuz qilinadi. Masalan:

محبوب القلوب - mahbub-ul-qo'lub.

الخوارزمي - al-xorazmiy- Xorazmiy.

Ishni bajarish tartibi:

1. Shamsiy harflar guruhini uch qatordan daftaringizga yozing va misollar keltiring.
2. Qamariy harflar guruhini uch qator yozing va yodlang.
3. Izofaga tavsif bering.
4. Arab izofasiga 6 ta misol keltiring.

Kerakli adabiyotlar:

1. Abdusamadov M. Fors tili. 45-50 betlar.
2. Jumaniyozov R. Eski o'zbek yozuvi. 121-128 betlar.
3. Xalilov. Fors tili. 5-20 betlar.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1-topshiriq.

- 1.1. Fors-arab yozuvining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.
- 1.2. Fors tilining taraqqiyoti davrlarini aniqlang.

2-topshiriq.

2.1. Fors-arab alifbosidagi harflarni har bir shaklini 4 qatordan yozib mashq qiling.

2.2. Fors-arab alifbosini yodlang.

3-topshiriq.

3.1. Mo'ttasil (qo'shilgan) harflar guruhini aniqlang.

3.2. Mo'nfasil (ayrilgan) harflar guruhini aniqlang, ular ishtirokida so'zlar yozing.

4-topshiriq.

4.1. Zir, zabar, pish qanday belgilar ularga tavsif bering.

4.2. So'kun va madda-diakritik belgilariga ta'rif bering.

4.3. Cho'ziq unlilar yozuvda qaysi harflar orqali beriladi, ular imlosiga ta'rif bering.

5-topshiriq.

5.1. Arab satr usti belgilarini aniqlang.

5.2. Tashdid va hamza belgilariga tavsif bering.

5.3. Tanvin va vasla belgini misollar asosida ta'riflang.

5.4. Arab satr usti belgilarini imlo o'zgarishlarini (belgilang) aniqlang.

6-topshiriq.

6.1. Shamsiy harflar guruhini ko'rsating.

6.2. Qamariy harflar guruhini yozib ko'rsating.

6.3. Izofa nima, unga ta'rif bering.

Ushbu topshiriqlarga quyidagi adabiyotlardan javob topasiz:

1. Jumanioyov R. Eski o'zbek yozuvi. 114-121, 122-128, 129-132 betlar.
2. Xalilov. Fors tili. 5-33 betlar.
3. Abdusamadov M. Fors tili. 9-51 betlar.

Modul bo'yicha yakuniy mashg'ulot:

1. Fors tilining taraqqiyot davri 3 davrga bo'linadi:
 1. Qadimgi fors tili (eramizdan ilgari VI-III asrlar).
 2. O'rta davr fors tili (eramizning III-VII asrlari).
 3. Yangi yoki hozirgi fors tili (IX asrdan boshlab shu kungacha).
2. Fors-arab alifbosining o'ziga xos xususiyatlari.
 - a) Yozuv o'ngidan chapga qarab yoziladi va shunday o'qiladi.
 - b) Fors-arab yozuvida bosh harf yo'q;
 - v) Fors tilida bo'g'in ko'chirish yo'q;
 - g) Harflar so'zdagi o'riniga ko'ra so'z boshi, so'z o'rta, so'z oxiri va alohida ko'rinishiga ega.
 - d) Hech qanday tinish belgilar yo'q, XX asrdan boshlab ba'zi bir tinish belgilar kirib kelgan.
3. Arab alifbosi 28 harfdan iborat bo'lib, forslar o'z spetsifik tovushlarini ifodalash uchun qo'shimcha ravishda quyidagi 4 harfni kiritganlar:
پ -pe, چ -chim, ژ -je, گ -gof.
Natijada fors-arab alifbosida 32 harf hosil bo'lgan.
4. Fors alifbosidagi harflar yozuvda bir-biriga qo'shilish va qo'shilmasligiga ko'ra 2 guruhga bo'linadi:
 - a) Ho'rufe mo'ttasele (qo'shilgan harflar), ular 25 ta bo'lib, o'zidan oldingi va o'zidan keyingi harfga qo'shib yoziladi, 4 xil shaklga ega bo'ladi.
 - v) Ho'rufe mo'nfasele (ayrilgan harflar), ular 7 ta bo'lib, o'zidan oldingi harfga qo'shib, keyingisiga qo'shilmaydi, yozuvda 2 xil shaklga ega bo'ladi.
5. Fors tilida a, e, o' qisqa unlilari yozuvda ifoda etilmaydi, ular harakat deb nomlanuvchi diakritik belgilar orqali beriladi.
6. Cho'ziq unlilar alif, vov va yo harflari orqali ifodalanadi.¹ –o, و - u, ی - i.
7. Zabbar –a qisqa unlisini ifoda etadi, yozuvda harf ustiga chiziqcha qo'yish bilan ifodalanib keladi (ustida, tepasida degan ma'noni bildiradi). Maslan:

- من -man-men. ملح -malax-chigirtka, مادر -modar-ona.
8. Harf ostiga chiziqcha qo'yish orqali e qisqa unlisi ifoda etiladi (). Fors grammatikasida ز-زير (ostida, tagida degan ma'noda) deb ataladi.
- دل -del-yurak; زمستان -zemeston-qish.
9. Harfning ustiga vergul shaklidagi belgini qo'yish orqali o' unli tovush ifoda etiladi. Yozuvda belgisi bilan ifoda qilinib, fors grammatikasida پيش -pish (old, oldida) deyiladi.
- شتر -sho'to'r-tuya. هنر -ho'nar.
10. تشديد -tashdid (kuchaytirish degan ma'noda) yozuvda belgisi bilan ifoda etilib, harfni takrorlab (ikkilantirib) o'qishga ishora qiladi.
- Masalan: اول -avval- birinchi; محله -mahalle-mahalla. نقاش -naqqosh-rassom.
11. همزه -hamza yozuvda ع belgisi bilan ifoda etiladi, bo'g'in ajratuvchi vazifani bajarib, kichik pauza qilishga ishora qiladi.
- مسول -mas'ul-mas'ul جرات -jur'at-jur'at.
12. تنوين -tanvin faqat arab tilidan kirgan so'zlardagina uchraydi. Tanvin belgisi bilan beriladi, talaffuzda -an tovush birikmasini bildiradi. Tanvinli so'zlar fors tilida ravish vazifasida keladi. Masalan: قَبْلًا -qablan-ilgari, oldin.
- فَصْدًا -qasdan-qasddan, bilib turib.
13. وصله -vasla (qo'shish ma'nosida) belgisi bilan ifodalanib, arab tilidagi al anqlik artiklining alif harfi ustiga qo'yiladi. Fors tilida vasla arab izofiy birikmalarda yoki aniq otlarda uchraydi. المغرب -al-marg'ab-g'arb.
- دارلِفُون -dor-o'l-fo'nun-universitet.
14. سكون -so'kun (tinchlik, to'xtash degan ma'nosida) yopiq bo'g'inni bildiradi, yozuvda belgisi bilan ifoda etiladi. Masalan: بَلْبُل -bo'lbo'l-bulbul.
- فرزند -farzand.

Nazorat savollari:

1. Fors adabiy tilining tayanch dialekti qaysi dialekt hisoblanadi?
2. Fors tili qaysi gruppaga eroniy tillariga kiradi? G'arbiy, sharqiy?
3. Fors tilining tarixiy taraqqiyoti yo'lini nechta davrga bo'lish mumkin.
4. Fors-arab alifbosi necha harfdan iborat?
5. Mo'ttasil harflar qaysilar?
6. Mo'nfasil harflar qaysilar?
7. Fors tilida qisqa unlilar qanday ifoda etiladi?
8. Fors tilida cho'ziq unlilar qanday ifodalanadi?
9. Qanday arab satr usti belgilarini bilasiz?
10. Zir belgisi qanday belgi, u qaysi tovushni bildiradi?
11. Zabar belgisi qanday belgi, u qaysi qisqa unlini bildiradi?
12. Pish qanday belgi?
13. Sokin qanday belgi?
14. Tashdid qanday arab satr usti belgisi?
15. Tanvin qanday belgi, u nimani anglatadi?
16. Vasla belgisi qanday belgi?
17. Hamza belgisi qanday belgi?
18. Madda nima?
19. Shamsiy harflar nechta, ular qaysilar?
20. Qamariy harflar nechta, qaysilar?
21. Cho'ziq unli so'z boshida kelsa, qanday yoziladi?
22. Qisqa unli so'z boshida kelsa, qanday imlo o'zgarishi ro'y beradi?
23. Harflar so'zdagi o'rniga ko'ra necha shaklga ega, ular qaysilar?
24. و vov harfi qanday tovushlarni ifodalaydi va qay holda?
25. ی yo harfi qanday tovushlarni ifodalaydi va qay holda?

26. ◦ - hoye-havvaz harfi qachon h undosh tovushini va qay paytda qisqa e unli tovushini ifoda etadi?
27. Qisqa unlilar imlosi haqida nimalarni bilasiz?
28. Cho'ziq unlilar yozuvda qachon undosh tovushlarni ifodalaydi?
29. Qaysi harflar yozuvda o'zidan oldingi va keyingi harfga qo'shilishi va qo'shilmasligiga ko'ra 2 xil shaklga ega bo'ladi?
30. Qaysi harflar yozuvda 4 xil shaklga ega bo'ladi?

1-Amaliy mashg'ulot.

Ot kesimli sodda yig'iq gap.

Asosiy savollar

1.Ot kesimli soda yig'iq gap.Ko'rsatish va so'roq olmoshlari.

2. است – bog'lamasining yozilishi.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar: -

است -ast -bog'lamasi,go'fto'go', ko'rsatish olmoshi,so'roq olmoshlari.

Dars maqsadi: Fors tilida ot kesimli gapning tuzilishi to'g'risida talabalarda tushunchalar hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1.Ot kesimli gapga tavsif bera oladi.

2.Ast- bog'lamasining yozilishi, imlosini biladi.

Kerakli jihozlar: darslik, mavzuga oid tablitsa, doska , bo'r.

Ishni bajarish tartibi:

1.Ko'rsatish va so'roq olmoshlarini misollar asosida tushuntirish va ot kesimli gapning tuzilishi bilan tanishtirish.

Fors tilida gapning eng sodda turi ikki tarkibli ot kesimli gapdir. Bunday gaplar ega va kesimdan iborat bo'ladi. Kesimi fe'ldan boshqa so'z turkumlari bilan ifodalangan gaplar ot kesimli gap deyiladi. Ot kesimli gapda kesimlikni ifodalash uchun ular oxiriga ast - است bog'lamasi qo'yiladi. است -ast bog'lamasi o'zbek tilidagi kesimlik qo'shimchasi –dir ga to'g'ri keladi. Masalan:

Bu bo'rdir –in gach ast. این گچ است

O'zbek tilida kesimlik qo'shimchasi -dir tushib qoladi va yozuvda ifoda etilmaydi.

Lekin fors tilida است - ast bog'lamasi gapda har doim mavjud va yozuvda ifoda etiladi.Masalan:

Bu daftardir -in daftar ast. این دفتر است

Fors tilida asosan ikkita ko'rsatish olmoshi bor. این -in-bu,shu. آن -on-u- o'sha. In olmoshi so'zlovchiga nisbatan yaqin bo'lgan predmetni va on-olmoshi so'zlovchiga nisbatan uzoq bo'lgan predmetni ko'rsatish uchun ishlatiladi.Masalan:

Bu stoldir- in miz ast. - این میز است

U doskadir- on taxte ast. آن تخته است

Fors tilida که - ke-kim, چه -che –nima, so'roq olmoshlari bor. که - ke-so'roq olmoshi insonlar uchun, چه - che- qolgan jonli va jonsiz predmetlar uchun ishlatiladi. Ke va che -so'roq olmoshlari است - ast bog'lamasi bilan birga kelganda ke va che olmoshlarining oxirgi e tovushi bog'lama astning a tovushi bilan qo'shilib,bir cho'ziq i tovushini hosil qiladi.

Kim?-kist? کیست Nima- chist? چیست

In chist-bu nima? این چیست Bu eshikdir. in dar ast. این در است.

On shogerd ast-Uo'quvchidir. آن شاگرد است. On kist?-U kim? آن کیست.

2. Talablar tomonidan bajariladigan mashqlar.

a) Lug'at ustida ishlash.

So'zlashish – go'fto'gu- گفتگو

eshik-dar – در

stol- miz –	میز
stul- sandali –	صندلی
doska – taxte –	تخته
va (bog'lovchi)- va –	و
bo'r- gach-	گچ
rukchka-qalam-	قلم
qalam- medod –	مداد
oq-sefid –	سفید
o'qituvchi-doneshyor-	دانشیار
o'quvchi-shogerd –	شاگرد
yaxshi-xub-	خوب
yomon-bad-	بد
talaba-doneshju-	دانشجو
ishchi-korgar-	کارگر

b) Nuqtalar o'rniga bog'lama qo'yib ko'chiring.

... دانشجو خوب ... , این میز , آن مرد شاگرد ...
 احمد کارگر ... , گچ سفید ... , دانشیار خوب ... , این دانشیار ...

v) Gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

Bu nimadir? Bu doskadir. Bu nimadir? Bu bo'rdir. U kimdir. U Ahmaddir. U ishchidir.
 Bo'r oqdir. U talabadir. U yaxshidir. Bu pakadir. U kattadir.

g) Quydagi gaplarni transkripsiya bilan yozing, so'ng tarjima qiling.

احمد کارگر است. آن مرد شاگرد است. این چیست. این در است.
 دانشجو خوب است. قلم بد است. آن کیست. آن دانشیار است.

Kerakli adabiyotlar:

1. Abdusamatov M. Fors tili. T. «O'qituvchi». 53-56 betlar.
2. Xalilov L. Fors tili. 1992 y T. «O'qituvchi» 37-39 betlar.
3. Dehqonova L. Fors tilida mustaqil ish matnlari. GulDu 2004 yil

2-Amaliy mashg'ulot:

So'roq gapning yasalihi.

Asosiy savollar:

1. So'roq olmoshlari, intonatsiya va so'roq yuklamalari orqali so'roq gapning yasalihi.
2. So'roqni bildiruvchi: چطور - cho'to'ur, چه رنگ - cherang, چکاره - chekore,
 کجا - ko'jo, کدام - ko'dom so'zlari vositasi bilan so'roq gap yasash.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar:

Oyo, magar so'roq yuklamalari, ori, bali, tasdiq va naxeyr inkor so'zlari, so'roq so'zlar.

1-savol bo'yicha dars maqsadi:

Fors tilida so'roq olmoshlari, so'roq yuklamalari orqali so'roq gap yasalihini tushuntirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Fors tilida که ke-kim? va چه che-nima? so'roq olmoshlari orqali so'roq gap yasalihini izohlay oladi.
2. Fors tilida so'roq gap boshida ohang past bo'lib, gap oxirida ko'tarilishini biladi.
3. Gap boshida oyo, magar so'roq yuklamalarini keltirish orqali ham so'roq gap yasalihini ayta oladi.

